

**Demografiya, mehnat va gender statistikasi  
bo‘limi to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘limining (keyingi o‘rinlarda bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatları, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etishni belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagи “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunlarga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to‘g‘risida”gi nizomga, mazkur nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim demografiya, mehnat va gender statistikasi masalalari bo‘yicha faoliyatini Statistika boshqarmasining tarkibiy bo‘linmali, , tumanlar va shaharlar statistika bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda hududiy statistika organlari deb ataladi) bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM – The Generic Statistical Business Process Model) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan Statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish milliy modelining barcha bosqichlarida bevosita va bilvosita ishtiroy etadi.

6. Bo‘lim o‘z faoliyatini viloyat Statistika boshqarmasi rahbarligida amalga oshiradi.

**2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari**

7. Quyidagilar bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo‘yicha faoliyatni demografiya, mehnat va gender statistikasi tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilishda ishtiroy etish;

foydanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid dolzarb statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish;

xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha sifatli va ishonchli statistika ma’lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkorligini oshirishga qaratilgan ta’sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo‘llash;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha statistika ma’lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o‘z axborot tizimlarini rasmiy

statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli axborotlarning O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida o'z vaqtida aks ettirilishini ta'minlash;

aholini ro'yxatga olish natijalari asosida demografik ko'rsatkichlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish;

demografiya, mehnat va gender statistikasi tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol siyosatni yuritish.

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) *rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy demografiya, mehnat va gender statistikasi tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:*

demografiya, mehnat va gender statistikasidan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish natijalarini hisobga olgan holda milliy demografiya, mehnat va gender sohasi rivojlanishining istiqbolli maqsadlari va yo'nalishlarini belgilaydi;

milliy demografiya, mehnat va gender statistikasi tizimiga statistika faoliyatini tashkil etishning xalqaro darajada tavsiya etilgan ilg'or uslubiyotlari va tavsiyalarini joriy etish yuzasidan zarur choralarni amalga oshiradi;

ko'p yillik va bir yillik statistika dasturlarining ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish va amalga oshirilishini monitoring qilishda ishtirok etadi;

rasmiy demografiya, mehnat va gender statistikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birqalikda amalga oshiradi va statistika dasturlari doirasida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender sohasida rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika uslubiyotlari yagonaligini ta'minlaydi, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari statistika uslubiyotlarini xalqaro tavsiyalarga muvofiqligi yuzasidan auditdan o'tkazadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha milliy statistika tizimi faoliyatini tashkil etish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi, rasmiy statistika sohasi masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish hamda xalqaro tavsiyalar asosida normativ-huquqiy hujjatlarni, shu jumladan, statistik ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyotlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, joriy etish va takomillashtirishda ishtirok etadi;

vakolati doirasidagi masalalar bo'yicha tavsiya, qo'llanma va ko'rsatmalar ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish asosida statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab

chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullarini belgilashda ishtirok etadi;

ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning o'zları yig'adigan statistika kuzatuvlari shakllarini kelishishda ishtirok etadi.

b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan demografiya, mehnat va gender xususiyatiga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishslash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

demografiya, mehnat va gender statistikasi ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishslash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, tarqatish va e'lon qilish ishlarini amalga oshiradi;

milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda statistika dasturlarining demografiya, mehnat va gender statistikasi qismi bajarilishini ta'minlaydi;

mamlakatni, uning hududlarini, tarmoqlar va sohalarini demografiya, mehnat va gender yo'nalishida rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining bajarilishi jarayonlari yuzasidan statistika kuzatuvlarini tashkil etadi va amalga oshiradi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi ma'lumotlarini yig'ishni, bir marotabalik hisobga olishlarni, tanlanma so'rovlarni va boshqa statistika kuzatuvlarini o'tkazishni tashkil etadi va amalga oshiradi;

demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning statistik hisob-kitoblarini amalga oshiradi hamda ushbu sohalarda mamlakatdagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning dastlabki statistik tahlilini olib borishda ishtirok etadi;

respondentlarga elektron shakldagi statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish uchun maxsus axborot tizimidan bepul foydalanish imkonini yaratishda ishtirok etadi;

respondentlarga ishonchli statistika ma'lumotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistika ma'lumotlarini taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbazarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi hisobotlarini yig'ish, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish hamda ularni tarqatish va e'lon qilish jarayonlariga davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslarining har qanday aralashuvini istisno qilish chora-tadbirlarini ko'radi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha ma'lumotlar bazasini, veb-saytlarni yuritadi va yangilab boradi, foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga doir zarur tushuntirishlar beradi;

rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan demografiya, mehnat va gender bo'yicha statistika ma'lumotlari va metama'lumotlar almashinuvini keng yo'lga qo'yadi;

olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot va individual ma'lumotlardan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida statistika organlari faoliyati jarayonlarida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashni ta'minlaydi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha qo‘sishimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma’lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning so‘roviga ko‘ra pulli asosda taqdim etish uchun tayyorlashda ishtirok etadi;

shartnoma asosida demografiya, mehnat va gender sohasida rasmiy statistika masalalari bo‘yicha pulli xizmatlar, shuningdek, Statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni ko‘rsatish hamda ishlarni bajarishda ishtirok etadi;

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha statistika organlari faoliyati jarayonlarida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshiradi;

*d) xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma’lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta’sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo’llash sohasida:*

xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini joriy etishni ta’minlaydi;

rasmiy demografiya, mehnat va gender statistikasi ma’lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini tashkil etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha sifatli va ishonchli statistika ma’lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini ta’minalash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘rganadi va ularni rasmiy statistika sohasiga joriy etish choralarini ko‘radi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilar va ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlari tizimini maqbullashtirish yo‘li bilan xolisona, sifatli va talab yuqori bo‘lgan hisobot ma’lumotlari tayyorlanishini, tanlanma statistika kuzatuvlari sonini va natijalarining ishonchliligi bosqichma-bosqich oshirilishini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha ochiq statistika ma’lumotlarini statistika organlari, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilar, boshqa davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning internet resurslari hamda nashrlarida joylashtirish yo‘li bilan tarqatish va barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma’lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratishda ishtirok etadi;

boshqa mamlakatlarning rasmiy statistikani tayyorlovchilar va xalqaro tashkilotlar bilan demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha ochiq statistika ma’lumotlarini o‘zaro almashadi;

milliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha rasmiy statistika ma’lumotlarining maksimal darajada ochiqligi va shaffofligini, shu jumladan, ko‘rsatkichlarni xalqaro statistik to‘plamlarda chop etilishini ta’minalash maqsadida xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirishni ta’minlaydi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, statistika ma’lumotlarining mazmuni va sifatini yanada yaxshilash maqsadida foydalanuvchilar o‘rtasida taqdim etilayotgan demografiya, mehnat va gender statistikasi ma’lumotlaridan qoniqish darajasini baholash bo‘yicha so‘rovlar o‘tkazadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha rasmiy statistika ma’lumotlarining manbalari, ularni tayyorlash usullari, ishonchliligi, shaffofligi, oshkoraligi va sifati to‘g‘risida foydalanuvchilarni metama’lumotlar yordamida xabardor qilib boradi.

e) statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash sohasida:

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha statistika kuzatuvlarini o'tkazish, rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish va tahlil qilish maqsadida, zaruratga ko'ra, mavjud axborot tizimlarining davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yishda ishtirok etadi;

f) davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish, yuritish va yangilash hamda tegishli axborotlarning O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portalida o'z vaqtida aks ettirilishi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish sohasida:

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha Portalda e'lon qilinadigan ochiq ma'lumotlar to'plamlari ro'yxatini shakllantirish hamda yangilanishning aniq muddatlari va davriyilagini belgilagan holda tasdiqlanishini hamda muntazam yangilab turilishida ishtirok etadi;

j) milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol siyosatni yuritish sohasida:

demografiya, mehnat va gender statistikasi xodimlarining statistika sohasidagi bilim hamda ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini tasdiqlash hamda amalga oshirilishini tashkil etishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi xodimlari uchun lavozim va malaka darajalariga ko'tarilishda ularning mehnat faoliyati, irodaviy va axloqiy sifatlari, iqtidori va ko'nikmalarini xolisona baholashga asoslangan teng imkoniyatlar yaratadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqat qilib bo'lmaydigan munosabatni shakllantirish bo'yicha ta'sirchan choralarни ko'radi;

rasmiy statistika sohasida demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy va statistik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirilishini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi faoliyatini takomillashtirish maqsadida ilg'or statistik usullar va vositalar asosida innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqish va amalga oshirish choralarini ko'radi;

xalqaro tavsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib borish maqsadida demografiya, mehnat va gender statistikasiga doir turli xalqaro tadbirlar, seminar, treninglar va boshqa tadbirlarda tizim vakillarining ishtirokini ta'minlaydi;

Statistika boshqarmasi O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **3-bob. Bo'limning huquqlari va majburiyatları**

9. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Statistika agentligi va viloyat statistika boshqarmasidan o‘ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma’lumotlarni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

Demografiya, mehnat va gender statistikasi ishlarini tashkil etish sohasida Statistika boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

statistika kuzatuvi shakllarini o‘zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, statistika kuzatuvlarini o‘tkazish usullari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo‘yicha takliflar berish;

hududiy statistika bo‘limlari tomonidan demografiya, mehnat va gender statistikasi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan va boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda ularning vakolatxonalari va filiallaridan) statistika hisobotlarini belgilangan tartibda olish hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid ishlarni olib borish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so‘rash va olish;

demografiya, mehnat va gender statistikasi kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek, rasmiy statistik axborotlar bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

demografiya, mehnat va gender statistikasi sohasidagi statistika ma’lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish va yig‘ma statistika ma’lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

demografiya, mehnat va gender sohasiga oid masalalar yuzasidan xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, seminar va yig‘ilishlarda, shuningdek, xalqaro seminar va yig‘ilishlarda ishtirok etish;

Statistika dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, Viloyat Statistika boshqarmasining ish rejali, Bo‘lim ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo‘yicha Statistika boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

Bo‘lim vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha Statistika boshqarmasi va bo‘limlari bilan hamkorlik qilish.

10. Bo‘lim quyidagi majburiyatlarga ega:

o‘ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga amal qilish, ilg‘or xalqaro amaliyotga muvofiq foydalanilayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo‘lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, ijro intizomini ta’minalash.

#### **4-bob. Bo‘lim tuzilmasi**

11. Bo‘lim tarkibiga bo‘lim boshlig‘i, bo‘lim bosh mutaxassis hamda 1-toifali mutaxassislar kiradi.

12. Bo‘lim va uning tarkibiga kiruvchi xodimlar faoliyatiga bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi.

13. Bo‘lim boshlig‘i, Bo‘lim bosh mutaxassis hamda 1-toifali mutaxassislari Statistika agentligi direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

14. Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha yig‘ma tahliliy ma’lumotlarni shakllantirish bo‘limi quyidagilarni amalga oshiradi:

demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid ma’lumotlarning sifatini yanada yaxshilash, sohaga oid statistika ko‘rsatkichlarining to‘laqonli ma’lumot bazalarini yaratish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchlilikini tahlil qilish;

demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid ko‘rsatkichlarning uslubiy asoslarini hamda statistika kuzatuvi shakllarini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

boshqa rasmiy statistika ishlab chiqaruvchilarning statistika metodologiyalarini xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan auditdan o‘tkazishda ishtirok etish;

Statistika dasturiga muvofiq, gender statistikasi bo‘yicha statistik ma’lumotlarni umumlashtirish, tahlil etish, saqlash va nashrga tayyorlash ishlarini tashkil etish;

gender statistikasi bo‘yicha bo‘lim tomonidan taqdim etilgan axborotlarni rasmiy (gender.stat.uz) veb-saytiga joylashtirib borish;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha vazirlik va idoralarga axborotlarni shakllantirishda uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;

15. Mehnat statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘limi quyidagilarni amalga oshiradi:

Statistika dasturiga muvofiq, mehnat statistikasi bo‘yicha statistik kuzatuvlar o‘tkazish, ma’lumotlarni umumlashtirish, tahlil etish, saqlash va statistik ma’lumotlarni nashrga tayyorlash ishlarini tashkil etish;

mehnat statistikasi bo‘yicha hududiy organlar faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, ular tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish ishlarini olib borish;

mehnat statistikasi bo‘yicha hududiy statistika bo‘limlariga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;

mehnat statistikasi bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga ma’lumotlarni shakllantirishda uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;

mehnat statistikasi bo‘yicha ma’ruzalar, statistik to‘plamlar hamda mehnat sohasi jarayonlarini tavsiflovchi boshqa statistik ma’lumotlarni tayyorlash;

statistik ma’lumotlarni shakllantirish, saqlash va tarqatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta’minalash.

16. Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish bo‘limi quyidagilarni amalga oshiradi:

Statistika dasturiga muvofiq, demografiya statistikasi hamda ma’muriy-hududiy birliklar bo‘yicha statistik kuzatuvlar o‘tkazish, ma’lumotlarni umumlashtirish, tahlil etish, saqlash va nashrga tayyorlash ishlarini tashkil etish;

demografiya statistikasi bo‘yicha hududiy organlar faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, ular tomonidan taqdim etilgan axborotlarni tahlil qilish ishlarini olib borish;

demografiya statistikasi bo‘yicha hududiy statistika organlariga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;

demografiya statistikasi bo'yicha vazirlik va idoralarga axborotlarni shakllantirishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish;

demografiya statistikasi bo'yicha ma'ruzalar, statistik to'plamlar hamda demografiya sohasi jarayonlarini tavsiflovchi boshqa statistik ma'lumotlarni tayyorlash;

statistik ma'lumotlarni shakllantirish, saqlash va tarqatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash.

### **5-bob. Bo'limning faoliyatini tashkil etish**

17. Bo'limning faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni, Statistika kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturi, Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi to'g'risida nizom, mazkur nizom, Statistika agentligi direktorining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek, viloyat Statistika boshqarmasining ish rejali, bo'limning ish rejali va bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limning ish rejasi viloyat Statistika boshqarmasi rahbari tomonidan tasdiqlanadigan boshqarmaning ish rejali asosida shakllantiriladi va rahbar tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarning funksional vazifalari bo'lim boshlig'i tomonidan bo'linmaga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va rahbar tomonidan tasdiqlanadi.

### **18. Bo'lim boshlig'i:**

Bo'limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, bo'lim mutaxassislarining ishini tashkil qiladi, Bo'limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizoming holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsija qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazolash choralar bo'yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Bo'limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va rahbarga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Boshqarmaning yig'ilishlari va majlislarida, shuningdek, boshqarma rahbariyatining topshirig'iga binoan, bo'lim yuritadigan sohaga kiruvchi masalalar bo'yicha idolararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi sohasida normativ va metodologik hujjatlarni va statistika kuzatuvlari shakllari loyihamini ekspert jihatdan puxta ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

Boshqarma rahbari va uning o'rinnbosarlarining topshiriqlariga binoan tahliliy va umumlashtiruvchi materiallar tayyorlaydi, qo'yilgan vazifalarni samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha yig'ma tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish bo'limi, Mehnat statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'limi, Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'limi boshliqlari va mutaxassislariga maslahat va uslubiy yordam ko'rsatadi;

Boshqarma va Bo'limning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy va boshqa materiallarni o'z vaqtida tizimli asosda tayyorlanishini ta'minlaydi;

Bo‘lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘ldirish choralarini ko‘radi;

Bo‘lim kadrlari zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta’minlaydi;

Bo‘lim xodimlari bilan yuklangan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo‘riqnomalar berish bo‘yicha yig‘ilishlar o‘tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o‘z vaqtida ijro etilishini qat’iy nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishslash va ularni saqlash bo‘yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta’minlaydi.

Bo‘lim boshlig‘i vaqtinchalik bo‘limgan taqdirda uning vazifasini Bo‘lim bosh mutaxassisi bajaradi.

## **19. Bo‘lim bosh mutaxassisi:**

mutaxassislarning ishini muvofiqlashtiradi, demografiya, mehnat va gender bo‘yicha statistika faoliyatini tashkil etish masalalari bo‘yicha hududiy statistika organlari bilan hamkorlikni tashkil qiladi;

mutaxassislar tomonidan ma’lumotnomalar, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni sifatli va o‘z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi, shuningdek, Bo‘limga tegishli masalalar bo‘yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini sifatli va o‘z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

bo‘lim faoliyati samaradorligini tahlil qilish va uni oshirish bo‘yicha takliflar kiritadi, bo‘lim faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlashda ishtirop etadi;

boshqarmaning boshqa bo‘limlari darajasida hamda boshqa tashkilotlar (shaxslar) bilan uchrashuvda bo‘lim nomidan bo‘lim boshlig‘i yo‘qligida vakillik qiladi;

Bo‘lim tomonidan tayyorlanayotgan statistik ma’lumotlar asosida turli tahliliy sharhlar tayyorlashda ishtirop etadi;

ilmiy asoslangan statistika uslubiyati va instrumentariylarni tayyorlash, ularni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va amaliyotga joriy qilishda ishtirop etadi;

bo‘lim faoliyatiga tegishli bo‘lgan me’yoriy-huquqiy, uslubiy hujjatlarni tayyorlash, kelishish va tasdiqlash uchun kiritish ishlarini tashkillashtiradi;

statistik ma’lumotlarni sharplash, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishslash uslublari, statistik hisob-kitoblar o‘tkazish, olingan ma’lumotlarning ishonchliliginini tekshirish bo‘yicha maslahatlar beradi;

bo‘lim boshlig‘i bo‘limgan vaqtida uning vazifalarini bajarish, bo‘lim ishlarini muvofiqlashtirish va bo‘limga yuklatilgan vazifalar, majburiyatlar bajarilishini ta’minlash va bo‘lim faoliyatini, ijro va mehnat intizomi holatini nazorat qilish ishlarini amalga oshiradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

## **20. Bo‘lim 1-toifali mutaxassisi:**

Statistika hisobot shakillarining ma’lumotlarini yig‘ish, umumlashtirish, tahlil etishda ishtirop etadi;

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy bo‘linmalarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni yil davomida tahlil qilib borishda ishtirop etadi;

Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha dinamik qatorlarni yuritadi;

demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid dastlabki ma’lumotlarni yig‘adi, tahlil etadi va umumlashtiradi;

demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha statistik to‘plamlar uchun ma’lumotlar tayyorlashda ishtirok etadi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda, iqtisodiy-matematik usullarda demografiya, mehnat va gender statistikasiga oid ko‘rsatkichlarni doimiy ravishda mantiqiy tahlil qilishda ishtirok etadi;

foydalananuvchilarning demografiya, mehnat va gender statistikasi sohasidagi ma’lumotlarga bo‘lgan talabiga muvofiq, rivojlanayotgan xorijiy tajribani o‘rganishda, umumlashtirishda va tarqatishda ishtirok etadi;

rahbariyat topshiriqlari ijrosini ta’minlaydi.